



## THE IMPORTANCE OF TECHNOLOGY CLUBS IN CHOOSING A PROFESSION

**J.M. Aleuatdinova**

2nd year master's student of Nukus State Pedagogical Institute

**Z.B. Erekeeva**

2nd year master's student of Nukus State Pedagogical Institute

**U.J. Alimbaeva**

2nd year master's student of Nukus State Pedagogical Institute

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19352222>

### ARTICLE INFO

Received: 25<sup>th</sup> March 2026

Accepted: 30<sup>th</sup> March 2026

Online: 31<sup>st</sup> March 2026

### KEYWORDS

*Career guidance activities, pedagogical-psychological analysis, interests, creative ability, career choice, ability.*

### ABSTRACT

*Choosing a profession is one of the most important decisions in a person's life, as it has great significance for personal development, social stability and economic well-being. In the context of today's changing labour market, rapid technological advancement and the emergence of new professions, it is very important to guide students towards the right paths in career selection. The technology of guiding career choice in technology science includes scientifically based approaches that ensure the process is effective and purposeful.*

## KASB TANLASHDA TEXNOLOGIYA FANI TO'GARAK ISHLARINING AHAMIYATI

**J.M. Aleuatdinova**

Nukus Davlat Pedagogika Instituti II-kurs magistranti

**Z.B. Erekeeva**

Nukus Davlat Pedagogika Instituti II-kurs magistranti

**U.J. Alimbaeva**

Nukus Davlat Pedagogika Instituti II-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19352222>

### ARTICLE INFO

Received: 25<sup>th</sup> March 2026

Accepted: 30<sup>th</sup> March 2026

Online: 31<sup>st</sup> March 2026

### KEYWORDS

*Kasb tanlashga yonaltirish ishlari, pedagogik-psixologik tahlil, qiziqishlari, kreativlik qobiliyat, kasb tanlashi, qobiliyat.*

### ABSTRACT

*Kasb tanlash - bu har bir insonning hayotidagi eng muhim qarorlardan biri bo'lib, u shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy farovonlik uchun katta ahamiyatga ega. Hozirgi zamonning o'zgaruvchan mehnat bozori, texnologiyalarning tezkor rivojlanishi va yangi kasblarning yuzaga kelishi sharoitida, o'quvchilarga kasb tanlashda to'g'ri yo'llarni ko'rsatish juda muhimdir. Texnologiya fanidan kasb tanlashga yo'llash texnologiyasi bu jarayonning samarali va maqsadga muvofiq o'tishini ta'minlaydigan ilmiy asoslangan yondashuvlarni o'z ichiga oladi.*



**Kirish.** Texnologiya fani o'qituvchisi texnologik ta'lim jarayonida kasb va mehnat turlari haqidagi ma'lumotlarni tegishli mavzularga oid o'quvchilarga yetkazishi lozim. O'quvchilarning qiziqishlariga asoslangan holda o'tkaziladigan mashg'ulotlar orasida kasblarga oid to'garaklar alohida o'rin egallaydi. Bunday to'garaklar ko'pincha texnologik va kasb ta'limi o'qituvchilari tomonidan olib boriladi. Bular qatoriga texnik ijod, mohir qo'llar, yosh texnologlar, yosh fiziklar kabi to'garaklarni kiritish mumkin. O'qituvchi bu to'garaklarda o'quvchilarning loyihalash, texnik ijodkorlik, ixtirochilik kabi qobiliyatlarini rivojlantirish ustida tizimli ish olib borish imkoniyatiga ega. Texnologiya o'qituvchisi ish faoliyatida pedagogik-psixologik tahlilga alohida o'rin ajratishi lozim.

O'quvchilarda kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayonlar samaradorligini oshirish ta'lim-tarbiyaning shakli, mazmuni, maqsadi, vazifalari va uni amalga oshirish uchun qo'llaniladigan metodlarga bog'liqdir. Bu borada «Texnologiya» fani o'z xususiyatiga ko'ra ko'proq imkoniyatga egaligi bilan ajralib turgani bois bir qator pedagog olimlar mazkur yo'nalishda maqsadli tadqiqotlar olib borganlar.

Jumladan, o'quvchilarda texnologik ta'lim asosida yashirin qobiliyatlarni yuzaga chiqarish va kasbiy faolyatga tayyorlash muammolarining ayrim jihatlari respublikamiz olimlari A.Aliyev, N.Alimov, N.A.Bekmuratova, D.F.Jalolova, K.Davlatov, R.Jo'rayev, A.Matmuradov, M.Haydarov, I.Islomov, T.J.Ismoilov, K.A.Zoyirov, Sh.S.Sharipov, I.Karimovlar

tomonidan o'rganilgan bo'lsa, ta'lim sohasida badiiy loyihalash ishlarini tashkil qilishning ayrim jihatlari E.I.Ro'ziyev, A.Sotiboldiyev, A.P.Xudoyberganovlarning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan.

Bundan tashqari, I.N.Islamov, A.E.Parmonovlar tomonidan umumiy o'rta ta'lim maktablari texnologiya fani mashg'ulotlarida o'quvchilarni dizaynerlik ijodkorligi qobiliyatlarini va badiiy konstruksiyalash elementlariga doir muammolari yechimlari bo'yicha tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Pedagogik-psixologik tahlil jarayonida o'qituvchi maktab jamoasi va psixologi, o'quv ishlari ta'limi kasb-hunar maktablari rahbarlari bilan hamkorlikda har bir o'quvchining tanlagan kasbi bilan shaxsiy fazilatlarini o'rtasidagi muvofiqliklarni aniqlashi kerak.

Umumta'lim maktabi o'quvchilarini kasb tanlashga yo'naltirish ishlarini tashkil etishda kasb tushunchalari berish, kasb-hunarga yo'naltirish tizimi hamda bosqichlarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda maktab jamoasi oldida o'quvchilarning kasbiy qiziqishlarini o'rganish, har bir fan o'qituvchisi darslarda o'quvchilarga mavzuga bog'liq holda kasbiy tushunchalar berilishi, samarali yakunga asoslanib kasb tanlashga yo'naltirish ishlarini tashkil etilishi kerak bo'ladi.

Yoshlarning kasb tanlashiga pedagogik-psixologik bilim, ko'nikma, tajribalar hamda jamiyat ta'siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim. Bu jarayonda shaxsdan kasbga oid bilimlarga ega bo'lish talab etiladi. Shuning uchun ham o'quvchilarni kasblar olamiga oid bilimlar bilan tanishtirish, amaliy ko'nikma va



malakalarni hosil qilish uchun to'garaklar olib borilishi lozim.

Buning uchun kasblarga oid qo'llanmalar, tarqatma materiallar bilan ta'minlash kerak. Shundagina kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli muammo, ziddiyat va to'siqlarning oldini olgan holda o'quvchi yoshlarni ongli ravishda kasbga yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'lamiz. O'quvchilarni kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirishda texnologiya xonasi, laboratoriya va ustaxonalar ham muhim ahamiyatga ega.

Texnologiya fani o'qituvchisi ularni zamonaviy talablar asosida jihozlashga alohida e'tibor qaratishi lozim, chunki o'quvchilarda maxsus mehnat faoliyati va kasb turi haqidagi bilim, tushuncha, fikrlar, ularning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqidagi ma'lumotlar dastlab shu yerda paydo bo'ladi.

**Qiziqish** deb odamning u yoki bu fanga qaratilgan faol bilish faoliyati tushuniladi. Kasb tanlashga nisbatan qiziqishlar bu odamning maxsus bir mehnat sohasiga ijobiy munosabati, uning bilishga, faoliyat ko'rsatishga bo'lgan intilishidir. Qiziqishlar o'zining ko'lami, uzoq davom etishiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Qiziqishlarning mazmuni va ko'lami kishining bilim darajasini hamda har bir faoliyatga qiziqishini aks ettiradi. Qiziqishlarning ustunligi va uzoq davom etishi ularning barqarorligini ko'rsatadi. Qiziqishlar o'z rivojlanishi yo'lida bir necha bosqichni bosib o'tadi.

Dastlab ular vaqtincha epozidik xarakterda bo'ladi hamda maxsus bir fanga nisbatan ijobiy munosabatlarda aks etadi. Bunday qiziqishlar rivojlantirib borilmasa, ular tez orada pasayib ketadi yoki butunlay so'nadi. U

yoki bu fanning chuqur va uzluksiz ravishda o'rganilib borilishida mehnat faoliyatining qiziqtirgan sohasiga chuqur kirib borishiga qarab qiziqishlar mustahkamlanib, kuchayib borishi va asta-sekinlik bilan doimiy qiziqishga aylanib qolishi mumkin.

O'quvchilarning tanlagan kasbga qiziqishini yo'qotmaslik uchun ularga kasbga yo'naltirish to'garaklari tashkil etilishi va tanlagan kasbga yanada qiziqtirish, u haqida ma'lumotlar berib o'quvchining kasbga bo'lgan qiziqishini oshirish kerak.

Kasb tanlashda texnologiya fani to'garak mashg'ulotlarining ahamiyati shundan iboratki, bunda o'quvchilarning to'garak orqali biror kasb haqida ma'lumotga ega bo'lish, shu kasbga bo'lgan munosabatini anglash, qiziqishini sezish va layoqatini kuzatish orqali shu kasbga bo'lgan intilishini yanada oshirish.

O'quvchilar shaxsini shakllantirishning omili sifatidagi mehnat tarbiyasining samaradorligini oshirishga kasbga tayyorlash ishlarining puxta oylab tashkil qilinishi katta rol aynaydi.

Harbir o'quvchining oldida o'zi yoqtirgan kasbni tanlash uchun keng imkoniyatarbor. Har qaysi maktabdagi kasb tanlash ishlarining vazifasi va mazmuni uning atrofidagi ishlab chigarishning xususiyatlari, tabiiy sharoidari mazkur iqtisodiy tomondagi xalg xo'jaligi va madaniyatining rivojlanish yonalishlari bilan belgilanadi.

Maktab o'z tarbiyalanuvchilarini kasblar, mehnatining mazmuni, u yoki bu kasb egalariga qilinadigan talablar haqidagi bilimlar bilan qurolantirish o'quvchilarning individual, jismoniy va



psixologik xususiyatlarini o'rganish va ularga ana shu xususiyatlarga mos kasblarni tanlashlarida yordam berish kerak. Mehnat va kasbiy tayyorgarlik tizini bevosita yoshlarning mehnat va kasb tarbiyasi, ta'limini kasbiy axborotlar, kasb tanlash, kasbga yo'nakirish ishlarini amalga oshiradigan ulkan ishlardan biri bo'lib juda o'tmish taraqqiyotiga egadir. Xalqimizning millat, xalq, elat bo'lib shakllanishi mehnatsiz, kasblarsiz, hunarsiz tassavur etib bolmaydi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishning asosiy maqsadi har bir oquvchiga individual ravishda kasb yoki mehnat aoliyati sohasini asosli va to'g'ri tanlashda yordamlashishdir.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish umumta'lim maktabi ishining tarkibiy qismidir. Ma'lumki, agar kasb to'g'ri tanlangan bo'lsa, inson uchun mehnat quvonch ijodiy ilhom manbayiga aylanadi, bu esa inson uchun ham, jamiyat uchun ham foydalidir. Kasb tanlashga yo'llash butun pedagoglar jamoasi tomonidan xalq etiladigan umum maktab vazifasi hisoblanadi.

Shu bilan birga, bu ishda mehnat ta'limi alohida o'rinni egallaydi. O'quvchilarni kasb tanlashda asosiy omillar ota-ona, muhit va ta'lim-tarbiyadir. Kasb tanlashning asosiy vazifasi o'quvchilarni fan asoslari, politexnik mehnat va malakalari bilan qurollantirishdan, ularni mehnat va ijtimoiy faollikka, kasblarni ongi ravishda tanlashga, moddiy va ma'naviy boylardani ishlab chiqarishda ishtirok etishga tayyorlashdan iboratdir.

Ushbu ko'rsatmadan ko'rinib turganidek, yoshlarni ish bilan ta'minlash, kasbga yo'naltirish davlatimiz siyosatining ustuvor

vazifalaridan biri bo'lib turibdi. Bu vaqtda maktab bitiruvchilarini kasbga yo'naltirish qobiliyatidan kelib chiqib to'g'ri kasb tanlashi muhim ahamiyatga ega.

Bunda o'quvchilarning to'g'ri kasb tanlashi uchun darsdan tashqari to'garaklar tashkil etilib, qandaydir mehnat faoliyatiga yo'naltirish va shu faoliyat bo'yicha to'g'ri ko'nikmalar olib tajribalar to'plagan holda kelajakda o'z o'rnini topish yetuk kadr bo'lib yetishishiga turtki bo'ladi.

**Metodologiya.** Mazkur tadqiqotda kasb tanlash jarayonida texnologiya fani to'garak ishlarining ahamiyatini o'rganishda kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogik va psixologik nazariyalarga asoslandi.

Jumladan, kasb tanlash jarayonini o'rganishda Donald Super tomonidan ishlab chiqilgan kasbiy rivojlanish nazariyasiga tayanildi. Ushbu nazariyaga ko'ra, shaxsning kasbiy o'zini anglash jarayoni bosqichma-bosqich shakllanadi va bu jarayonda amaliy faoliyat muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, John Hollandning kasb tanlash tipologiyasi ham asos qilib olindi, unga ko'ra shaxsning qiziqishlari va muhit o'rtasidagi moslik kasbiy yo'nalishni belgilaydi.

Tadqiqotda faoliyatga asoslangan yondashuv Lev Vygotsky va Jean Piagetning ta'lim nazariyalariga asoslanib tanlandi. Ularning fikricha, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari bevosita amaliy faoliyat jarayonida samarali shakllanadi. Shu sababli texnologiya fani to'garaklari o'quvchilarning kasbiy rivojlanishida muhim vosita sifatida qaraldi.



Tadqiqotning empirik qismi umumta'lim maktablarining 7–9-sinf o'quvchilari orasida olib borildi. Tanlanma sifatida 80 nafar o'quvchi jalb qilindi va ular ikki guruhga ajratildi:

1. texnologiya to'garaklarida qatnashuvchi o'quvchilar;
2. to'garaklarda qatnashmaydigan o'quvchilar.

Ma'lumotlarni yig'ishda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

So'rovnoma (anketa) – o'quvchilarning kasbiy qiziqishlarini aniqlashda;

Suhbat (intervyu) – o'qituvchi va o'quvchilarning fikrlarini chuqur o'rganishda;

Kuzatish metodi – to'garak mashg'ulotlarining jarayonini tahlil qilishda;

Pedagogik tajriba – to'garak faoliyatining ta'sirini aniqlashda;

Taqqoslash va statistik tahlil – olingan natijalarni umumlashtirishda.

Tadqiqotda baholash mezonlari sifatida kasbiy qiziqish darajasi, amaliy ko'nikmalar, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati hamda kasblar haqidagi bilimlar belgilandi.

Olingan natijalar tavsifiy va statistik tahlil asosida qayta ishlanib, ularning ishonchligi bir necha metodlar orqali tekshirildi. Bu esa tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minladi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari texnologiya fani to'garaklarining o'quvchilarning kasb tanlashiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi.

Olingan ma'lumotlarga ko'ra:

to'garaklarda qatnashgan o'quvchilarning 72%ida aniq kasbiy qiziqish shakllangan;

qatnashmagan o'quvchilarda bu ko'rsatkich 41%ni tashkil etdi;

amaliy ko'nikmalar darajasi to'garak ishtirokchilarida yuqori ekanligi aniqlandi;

mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati sezilarli rivojlangan. Natijalar texnologiya to'garaklarining samaradorligini yaqqol namoyon etdi.

**Muhokama.** Olingan natijalar Donald Super va John Holland nazariyalari bilan mos keladi. Ya'ni, o'quvchilarning kasbiy qiziqishlari amaliy faoliyat orqali shakllanishi isbotlandi.

Texnologiya to'garaklari o'quvchilarga turli kasblarni sinab ko'rish imkonini beradi. Bu esa ularning o'z qiziqishlarini aniqlashiga yordam beradi.

Shuningdek, Lev Vygotskiyning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga muvofiq, o'quvchilar o'zaro hamkorlik va amaliy faoliyat orqali samaraliroq o'rganadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, texnologiya fani to'garaklarini rivojlantirish o'quvchilarning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, texnologiya fani to'garak ishlari o'quvchilarning kasb tanlash jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ular o'quvchilarda kasbiy qiziqishni shakllantiradi, amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi va ongli kasb tanlashga yordam beradi.

Shu sababli umumta'lim maktablarida texnologiya fani to'garaklarini kengaytirish va ularning samaradorligini oshirish zarur.



**References:**

1. Shamsutdinov, N. (2018). "Kasb tanlash va kasbga yo'llash: metodik yondashuvlar". Toshkent: Ta'lim nashri.
2. Xodjaev, F. (2020). "Kasb tanlashdagi psixologik omillar". Toshkent: Pedagogika nashri.
3. Kasimov, S. (2022). "Zamonaviy kasblar va kasb tanlash texnologiyalari". Tashkent: Innovatsion ta'limi
4. Kirgizova N. X. "To'garak a'zolarining kreativligini takomillashtirishda o'quv-axborot tizimidan foydalanish texnologiyasi" // ERUS Scientific Journal Impact factor: 5.564 ISSN: 2181-3515. 2023. –B. 1233-1238. ((14) ResearchBib)
5. Kirgizova N. X. "Pedagogical description of students'creative skills and creativity concepts in circle classes" // Current research journal of pedagogics. Address: Indianapolis Indiana USA. 2023. –B. 14-22. ((35) CrossRef)